

Matematika o`qitish metodikasi

5110100 - Matematika o`qitish metodikasi - umumiy o`rta ta`lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun matematika bo`yicha o`qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig`indisidan iborat bo`lgan ta`lim yo`nalishidir.

5110100 – Matematika o`qitish metodikasi ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi

4.1 Bakalavrning kasbiy faoliyat sohasi

5110100 – Matematika o`qitish metodikasi – umumiy o`rta ta`lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun matematika bo`yicha o`qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig`indisidan iborat bo`lgan ta`lim yo`nalishidir.

4.2 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati obyektlari

5110100 – Matematika o`qitish metodikasi ta`lim yo`nalishidagi bakalavrlarining **kasbiy faoliyati obyektlari** – umumiy o`rta ta`lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va maktabdan tashqari ta`lim muassasalari, o`quvchilar, o`quv-tarbiya jarayoni, o`qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari, matematik usullar.

4.3 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati turlari

5140100-Matematika o`qitish metodikasi ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavrlarning o`z psixologik-pedagogik, kasbiy tayyorgarligiga muvofiq kasbga oid faoliyat turlari:

- *o`qituvchilik;*
- *tarbiyachilik;*
- *o`quv-metodik;*
- *ilmiy-tadqiqot.*

Bakalavr kasbiy faoliyatining muayyan turlari ta`lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta`lim tizimi tomonidan aniqlanadi.

4.4 Bakalavrlar kasbiy faoliyatining vazifalari

5110100 – Matematika o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr ta'lim dasturini o'zlashtirish natijasida kasbiy tayyorgarlikning asosiy turlari va

maxsus tayyorgarligiga mos quyidagi kasbiy vazifalarni yechishi kerak:

- **o'qituvchilik:** umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari matematika o'qituvchisi bo'lib ishlash;

- **tarbiyachilik:** umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tashqari muassasalarda tarbiyachi bo'lib ishlash;

- **o'quv-metodik:** mos ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib ishlash;

ilmiy-tadqiqot muassasalarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash va boshqalar.